



# E CONF SERIES



**International Conference on Economics, Finance, Banking and Management**

**Hosted online from Paris, France**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

24<sup>th</sup> December, 2024

## **ISLOM MOLIYASINING ASOSIY TAMOYILLARI VA MOHIYATI**

Mamatmurodov Farrux Farxod o‘g‘li

Xususiy huquq fakulteti tyutori

Toshkent davlat yuridik universiteti

Email: [mamatmurodovfirdavs@gmail.com](mailto:mamatmurodovfirdavs@gmail.com)

Tel: +998933005005

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolaning maqsadi 2001-2013 yillar davomida 13 ta davlat namunasi uchun Sukuk bozori rivojlanishining tarkibiy, moliyaviy, rivojlanish, institutsional va makroiqtisodiy determinantlarini empirik tarzda o‘rganishdir. Sukuk dastlab faqat aholisining aksariyati musulmonlar bo‘lgan yurisdiktsiyalarda rivojlangan sukukning jahon bozori so‘nggi 10 yil ichida sezilarli darajada rivojlandi.

**Kalit so‘zlar:** sukuk, vaqf, sekyutarizatsiya, muzoraba, mushoraka.

## **ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ И СУЩНОСТЬ ИСЛАМСКИХ ФИНАНСОВ**

Маматмуродов Фаррух Фарход ўғли

Тьютор факультета Частного права Ташкентского государственного  
юридического университета

Email: [mamatmurodovfirdavs@gmail.com](mailto:mamatmurodovfirdavs@gmail.com)

Тел: +998933005005

### **Аннотация:**

Целью данной статьи является эмпирическое исследование структурных, финансовых, институциональных и макроэкономических детерминант развития рынка сукук для выборки из 13 стран за период 2001-2013 гг. Мировой рынок сукук, который первоначально развивался только в юрисдикциях с мусульманским большинством, значительно вырос за последние 10 лет.

**Ключевые слова:** сукук, вақф, секьютаризация, музораба, мушорака.



# E CONF SERIES



**International Conference on Economics, Finance, Banking and Management**

**Hosted online from Paris, France**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

24<sup>th</sup> December, 2024

## **THE FUNDAMENTAL PRINCIPLES AND ESSENCE OF ISLAMIC FINANCE**

Mamatmurodov Farrux Farxod o‘g‘li

Tutor of Private law Tashkent state university of law

Email: [mamatmurodovfirdavs@gmail.com](mailto:mamatmurodovfirdavs@gmail.com)

Tel: +998933005005

### **Abstract:**

The purpose of this paper is to empirically examine the structural, financial, developmental, institutional and macroeconomic determinants of Sukuk market development for a sample of 13 countries over the period 2001-2013. The global market for sukuk, which initially developed only in Muslim-majority jurisdictions, has grown significantly over the past 10 years.

**Keywords:** sukuk, waqf, securitization, negotiation, musharak.

### **Kirish**

Islomning eng muhim maqsadlaridan biri bu inson jamiyatida adolatni ta'minlashdir. Qur'on dagi barcha chaqiriqlar salbiy oqibatlar keltirib chiqishi mumkin bo'lgan jamiyatlarda adolatni ta'minlash uchun yuborilgan. Adolatni ta'minlashda eng muhim talablardan biri barcha inson qabul qiladigan va amal qilishi lozim bo'lgan axloqiy qadriyatlar va qonunlar to'plamini yaratishdir. Bunda jamiyat faoliyatiga bevosita aloqador bo'lgan har bir yo'naliishing o'z o'rni mavjud. Xuddi shunday moliyaviy tizim ham adolatni ta'minlash, uni kuchli va barqaror qilish imkoniyatiga ega.

Islom moliyasi shariatga asoslanib, bu odatda "Islom huquqi" deb tarjima qilinadi. Shariat musulmonlar hayotining barcha jabhalarida huquq bo'lsin, iqtisodiyot bo'lsin o'zining ko'rsatmalariga ega. Shariatga muvofiq moliyalashtirish Islom huquqidan o'z ichiga olgan moliyaviy amaliyotlardan tashkil topadi. Islom moliyasi qarz munosabatlarining rivojlanishi bilan savdo va oldi-sotdi faoliyatlarning yaxshilanishi orqali O'rta asrlarda musulmon olamida keng ravishda qo'llanilgan. Shu sababli O'rtayer dengizi hududlarida musulmon savdogarlari savdo faoliyatida



# E CONF SERIES



**International Conference on Economics, Finance, Banking and Management**

**Hosted online from Paris, France**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

24<sup>th</sup> December, 2024

ajralmas vositachilar bo‘lgan. Aslida, islom moliyasining ko‘plab tamoyillari, texnikalari, va instrumentlari yevropalik moliyachi va tadbirkorlar tomonidan keyinroq o‘z faoliyatlariga moslashtirilgan. Ammo, islom moliya tizimi atamasi 1980-yillardan keyingina keng ommaga ma’lum bo‘la boshladi. Shungacha islom moliyasi prinsiplarini nazarda tutadigan iaqtisodiyot va tadbirkorlik faoliyatlarini nazarda tutuvchi atamalar “Foizsiz” yoki “Islom” bankchiligi deb atalgan.

Islom moliyasi tizimi iqtisodiyotni boshqarish va moliyaviy amaliyotlarni amalga oshirishning qonun-qoidalar jamlanmasi bo‘lib, qisqa qilib aytganda islom huquqida Qur’on va hadisda keltirilgan ruxsat va cheklov larga asoslanagan shariat ko‘rsatmalariga amal qilish orqali tadbirkorlar va shaxslarning o‘z kapitalini ko‘paytirishni nazarda tutadi. Islom moliya tizimi dunyoning an’anaviy moliya muassasalari taklif etayotgan barcha moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni ko‘rsata oladi. Biroq, bu barcha mahsulotlar va xizmatlarning tagzamiri axloqiy-meyoriy tamoyillarga asoslanadi. Islom moliyasining prinsiplariga asoslangan barcha harakatlar va faoliyat jamiyat farovonligiga qaratilgan bo‘lishi kerak. Islom moliyasi ijtimoiy mas’ul investitsiyalarning nodatiy shakli hisoblanadi. Islom moliyasi VII asrda paydo bo‘lganligiga qaramasdan u 1960-yillarning so‘ngigacha bo‘lgan muddatda doimoy ravishda bosqichma-bosqich rivojlanib bordi. Islom moliyasining hozirda 40 dan ortiq davlatlarda 100 dan ortiq moliyaviy muassasalari mavjud. So‘ngi yillarda yiliga 15% dan ko‘proq ko‘rsatkichda o‘sib kelmoqda. Bugungi kunda bozordagi mavjud yillik aylanmasi 70 milliard dollarni tashkil etadi.

Islomiy moliyani an’anaviy shakllardan ajratib turuvchi moliyaviy va tijorat operatsiyalariga oid bir qator asosiy shariat qoidalari va taqiqlari mavjud. Islom moliyasi asosini bir necha oddiy prinsiplar bilan ifodalash mumkin. Foyda va zararda bo‘lishish, qarz oluvchi va qarz beruvchi (Investor) o‘rtasida foizga asoslangan moliyaviy munosabatlarning taqiqlanishi islom moliyasining eng muhim 2 ta asosidir. An’anaviy bank tizimidan farqli ravishda islom moliyasining har bir tamoyili axloqiy normalarga asoslanib, moliyaviy munosabatlarda ishtirok etuvchi har bir manfaatdor tomonning ekspluatatsiya qilinishini oldini oladi. Quyidagilar Islom moliyasining asosiy prinsiplari hisoblanadi:



# E CONF SERIES



**International Conference on Economics, Finance, Banking and Management**

**Hosted online from Paris, France**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

24<sup>th</sup> December, 2024

## G‘arar

Har qanday moliyaviy operatsiyalardagi aniqlik (ochiqlik, shaffoflik) shariatning eng muhim talablaridan biri hisoblanadi. Bunga ko‘ra savdo munosabatlarida unga bog‘liq bo‘lgan barcha bosqichlarida aniqlik ya’ni ikki tomon uchun ham xabardorlik bo‘lishi kerak. Misol uchun, ma’lum bir tovar savdosida bo‘yicha shartnomada mahsulotning aniq ta’rifi, narxi, xaridorga yetkazib berish vaqtiga kabilar aniq va ochiq ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak. Islom shariyatidan farqli ravishta an’naviy moliyachilikda g‘arar taqiqlanmagan. Bunga misol tariqasiada an’naviy sug‘urta shartnomalarini keltirishimiz mumkin. Sababi, an’naviy sug‘urta shartnomalari odatda muayyan hodisaga bog‘liq bo‘lib, unda o‘sha muayyan hodisaning kelajakda bo‘lishi yoki bo‘lmasligi mavhum.

Zamonaviy islom moliyasida quyidagilarni g‘arar uchun asos sifatida keltirishimiz mumkin:

- Kelajakda o‘sishi mumkin bo‘lgan biror bir kompaniyaning aksiyasini sotib olishni maslahat berish. Bunda o‘sha kompaniyaning aksiyasi kelajakda o‘sishi yoki o’smasligida mavhumlik bor;
- Narxi kelajakda aniqlanishi kerak bo‘lgan uyni sotib olish;
- Predmeti yoki uning shartlari nomalum bo‘lgan shartnomalar.

## **Amalga oshirilayotgan moliyaviy faoliyat shariatda ruxsat etilgan bo‘lishi kerak.**

Musulmonlar shariat man etgan faoliyat turlari bilan shug‘ullanishi mumkin emas. Bu tamoyildan kelib chiqadiki, islom moliyasida shariat nojoiz degan faoliyat turlariga investitsiya kiritish yoki shug‘ullanib bo‘lmaydi. Misol uchun spirtli mahsulotlar ishlab chiqaradigan zavodga investitsiya kiritish, qimorga asoslangan faoliyat bilan shug‘ullanish shular jumlasiga kiradi. Shu sababli ham islom banklari bu kabi tadbirkorlik faoliyatlarini moliyalashga ruxsat bermaydi. Ammo, bu kabi qonun-qoidalarning qat’iy tartibi islom moliyaviy muassasalari xalqaro maydonda cheklangan miqdordagi tafbirkorlik faoliyatları bilangina shug‘ullanishi mumkinligini anglatadi. Misol uchun, asosiy faoliyati cho‘chqa yetishtirib, go‘sht tayyorlaydigan tadbirkorlik faoliyatlariga investitsiya kiritishi mumkin emas.

Xalqaro tijoratning amaliy mulohazalari nuqtai nazaridan va shu maqsadda musulmon investorlarga unda ishtirok etish imkonini berish maqsadida, ko‘plab



# E CONF SERIES



**International Conference on Economics, Finance, Banking and Management**

**Hosted online from Paris, France**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

24<sup>th</sup> December, 2024

islom moliyasi ulamolari (mutaxassislari) agar ba'zi holatlari shariat talablariga to'g'ri kelsa, shariat muvofiq bo'lmaydigan kompaniya va bizneslarga ham investitsiya kiritilishi mumkin degan fikrni olg'a suradilar. Bunday kompaniya bizneslarga investitsiya kiritishda quyidagi talab me'yorlariga rioya qilish shart bo'ladi:

- Asosiy tadbirkorlik faoliyati shariatga ko'ra ruxsat etilgan faoliyat turi bo'lishi lozim;
- Bu faoliyatlarda keladigan foyda kompaniya yoki tadbirkorlik faoliyatining umumiy foydasini kichik miqdorini tashkil etishi kerak. Odatada bu kichik foyda miqdiri 5% dan 20% gacha bo'lishi mumkin;
- Kompaniya tomonidan olingen foizli kreditning umumiy miqdori bozor kapitali yoki umumiy aktivlarining 25% dan 35% gacha bo'lgan miqdoridan oshmasligi zarur;
- Kompaniyaning biznesdagi debitorlik qarzlari bozor kapitilizatsiyasining 25% - 33% oshmasiligi zarur.

## **Riboning (sudxo'rlik) taqiqlanishi.**

Islom moliya tizimi oldindan belgilangan yoki kafolatlangan har qanday foydani qat'iy ravishda taqiqlashga asoslanadi. Shu sababli ham bu foiz (sudxo'rlik) konsepsiyasini bekor qiladi va xatarni ulashish, o'zaro birgalikda faoliyat yurutish qo'llab-quvvatlab, shubha-tahminga asoslanadigan xatti-harakatlarni ixotalaydi.

Islomda foizga asoslangan faoliyat qat'ian taqiqlanadi. Sababi, Xudo tomonidan Qur'oni Karimda buyurilgan. Islomda diniy, ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatlar bir-biri bilan kuchli aloqada bo'lib, iqtisodiy faoliyatlar (ya'ni, har bir kishining daromad va xarajatlari) Islomiy tamoyillarga mos kelishi kerak. Islomga ko'ra moliyaviy faoliyat barcha ijtimoiy qatlamlarning farovonligi uchun foizsiz va sof shariat tamoyillariga muvofiq bo'lishi lozim. Qur'oni Karimda savdo va tijorat faoliyatiga oid aniq ko'rsatmalar bor. Misol uchun, savdodan (bay') olingen daromad halol, lekin foizga asoslangan faoliyatlar (ribo) harom hisoblanadi. Insonlar o'ziga xos muhitiga ko'ra diniy, ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatlar bilan shug'ullanadi. Islomda ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatlar diniy faoliyatlar bilan uzviy bog'langan. Har bir musulmon faqat halol ishlarni bajarishi va harom ishlardan uzoq bo'lishi lozim.



# E CONF SERIES



**International Conference on Economics, Finance, Banking and Management**

**Hosted online from Paris, France**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

24<sup>th</sup> December, 2024

Islomiy ko'rsatmalarning asosiy manbalari Qur'oni Karim va Sunnat hisoblanadi. Islom jamiyatda umumiylar farovonlik uchun savdo faoliyatlarini qo'llab-quvvatlaydi, lekin ribo (foiz)ga asoslangan operatsiyalar qat'yan taqiqlangan.

Foiz haqidagi qarashlardagi xato tushunchalardan biri pulga tovar sifatida qarashdir. Shu qarash sababli biznes subyektlari pulni tovar sifatida ustiga ma'lum narx qo'yib sotishadi yoki pulni ijaraga berib undan ma'lum ijara puli olishadi. Ammo, islam tamoyillari bu qarashni maqullamaydi. Sababi, pulning o'zi biror-bir qiymatga ega emas va puldan inson ehtiyojlari uchun to'g'ridan-to'g'ri foydalanib bo'lmaydi. Puldan faqat mahsulotlar va xizmatlarga egalik qilish uchun foydalanilishi mumkin. Mahsulotlar esa o'zining aniq qiymatiga ega bo'lib, undan foydalanish uchun biror narsaga almashish talab etilmaydi. Mahsulotlar aniq qiymatga ega bo'lsa ham pulda bunday xususiyat yo'q va u faqatgina mahsulot va xizmatlarni ayrboshlash vositasi, ya'ni, qiymat o'lchovi vazifasini bajaradi. Misol uchun, agar siz ma'lum bir rusumdagagi uyali telefon xarid qilmoqchisiz va sotuvchi bilan kelishsangiz sotuvchi xuddi shu sifatdagi boshqa uyali telefonni berishga haqqi yo'q. Bu tovarlarning o'ziga hos tabiat bo'lib, pulda bu mavjud emas. Misol uchun, siz kimgadir 100 ming so'm qarz bersangiz, qarz oluvchi aynan siz bergen 100 ming so'm pulni qaytarishi shart emas, balki boshqa 100 ming so'mni ham qaytarishi mumkin.

Ushbu yuqorida muhokama qilingan islam moliyasiga qo'yilgan asosiy tamoyillar islam moliyasi tarkibidagi barcha turdagilari moliyaviy xizmatlar uchun umumiylilik kasb etib, takoful, mushoraka, murobaha, muzoraba bo'ladimi barcha islamiy moliyaviy xizmatlar uchun umummajburiy tamoyil hisoblanadi va yuqoridagi tamoyillar ushbu xatmatlarning barchasi uchun fundamental ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli ham islam moliyasining tez sur'atlarda o'sib, kengayib borayotgan xizmatlaridan biri bo'lmish sukuk ham ushbu tamoyillardan kelib chiqib faoliyat yuritadi. Sukuk an'anaviy obligatsiyalarga o'xshash bo'lsa-da, ular orasida muhim farqlar mavjud, chunki sukuk islam moliyasining asosiy tamoyillariga mos keladigan tarzda ishlab chiqilgan. Islam moliyasining asosiy tamoyillari moliyaviy operatsiyalarniadolatli, shaffof va muammosiz o'tkazishga qaratilgan. Eng asosiysi, islam moliyasida foiz (ribo) taqiqlangan, ya'ni pulni sof foiz bilan qarzga berib, undan foyda olish man etilgan. Sukuk esa bevosita real aktivlarga yoki loyihalarga asoslangan investitsiya vositasi hisoblanadi.



# E CONF SERIES



**International Conference on Economics, Finance, Banking and Management**

**Hosted online from Paris, France**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

24<sup>th</sup> December, 2024

Sukuk tuzilmasi orqali investorlar aktivlarga bevosita egalik qiladi yoki ma'lum loyihalarga sarmoya kiritadi va bu orqali loyihadan keladigan daromad yoki zararlarni bo'lishadi. Sukuk sotib oluvchilar aktivlardan keladigan haqiqiy daromadni olishadi, ya'ni sukuk foiz stavkalariga emas, balki real foydaga asoslanadi.

Islom moliyasi tamoyillariga ko'ra, moliyaviy operatsiyalar faqat halol (shariatga mos) sohalarda amalga oshirilishi kerak, shu bois sukuk ham faqat ruxsat etilgan iqtisodiy faoliyatlarga yo'naltiriladi. Masalan, spirtli ichimliklar, qimor, va boshqa shariat tomonidan taqiqlangan sohalarda sukukni ishlatish mumkin emas. Bu ham sukukni islom moliyasining tamoyillariga asoslangan holda ishlab chiqilganligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu sababli ham sukuk islom moliyasiningadolat, shaffoflik va ijtimoiy mas'uliyat kabi asosiy tamoyillariga mos keladi. Shu sababli, sukuk nafaqat investorlar uchun, balki iqtisodiy barqarorlik va baraka nuqtayi nazaridan jamiyat uchun ham foydali moliyaviy vosita hisoblanadi.

Sukuk islomiy moliyaviy vosita bo'lib, an'anaviy obligatsiyalarga alternativ sifatida qaraladi. Dastlab, sukuklar Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyoda rivojlangan bo'lsa, hozirgi vaqtida global moliya bozorlarida keng qo'llanilib, turli investitsiya variantlarini taklif qiluvchi nufuzli vositaga aylangan.

Sukuk odatda g'arb davlatlari va aholising asosiy qismi musulmon bo'lgan ayrim davlatlarda, umuman olganda iqtisodiyotda islomiy obligatsiya sifatida ko'rilib, hozirgi zamonaviy sukukning kelib chiqish tarixi bir necha yillarga borib taqaladi. Islomiy obligatsiya sifatida ko'rيلayotgan sukuk qimmatli qogo'zları islom qonunlariga (Shariat prinsiplari) muvofiq keladigan moliyaviy instrument bo'lib, foizli qarzga asoslangan (ribo) moliyaviy munosabatlarni taqiqlaydi. Ushbu taqiq orqali turli xil moddiy qimmatliklar va xizmatlarga egalik qilish orqali moliyaviy munosabatlarni shakllantirishni qo'llab-quvvatlaydi. Sukukning umumiy tushunchalari, prinsiplari va shakllariga barafsil to'xtalib o'tishdan oldin, sukukning kelib chiqish tarixiga to'xtalib o'tish zarur.

Sukuk so'zi "Sakk" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, huquqiy instrument, dalolatnama, chek degan lug'aviy ma'nolarni anglatadi. Bundan tashqari tarixda qog'oz hujjatlarga muhr bosish ma'nosida ham keng qo'llanilgan. Birinchi sukuk stranzaksiyasi milodiy VII asrda Suriyadaning Damashq shahrida amalga oshirilgan.



# E CONF SERIES



**International Conference on Economics, Finance, Banking and Management**

**Hosted online from Paris, France**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

24<sup>th</sup> December, 2024

Sukukning ko‘plab mamlakatlarda islom moliyasi xizmatlarining bir turi sifatida ko‘rib, xalqaro moliya maydonida tezlik bilan rivojlanib borishi haqida gap ketganda, birinchi navbatda sukukning tarixi haqidagi savollar asosiy o‘ringa chiqishi tabiiy.

Sukuk so‘zi arabcha so‘z bo‘lganligi sababli sukukning datslabki kelib chiqishini arab tilida foydalanib kelingan adabiyotlarga qarash orqali aniqlashimiz zarur. Islom paydo bo‘lgan dastlabki davrlarda arablar ushbu so‘zdan ikkita tushunchada foydalanishgan. Birinchi ma’nosи urish, hujum qilish, tegish harakati fe’llarini bildirib,<sup>1</sup> ikkita narsani bir-biriga qattiq va kuch bilan tegishini anglatadi. Misol uchun uchun eshikni yopish, shapaloq berish, nayza otish. Qur’onda ushbu so‘z quyidagi fe’l bo‘lib kelgan: Bas, xotini qichqirib keldi va o‘z yuziga shapaloq tushirib, “Qari, tug‘mas xotin-a?!” – dedi. Shu bilan birga ushbu so‘zni ushbu ma’no shaklida hadislarda ham ko‘p marotaba uchratishimiz mumkin.

Sukukning ikkinchi ma’nosи qaydlar yoziladigan kitob, yozma hujjat, shuningdek, qarz, mol-mulk, iqtisodiy tranzaksiyalar va moliyaviy huquqlarni o‘zida aks ettiradigan qaydnoma degan ma’nolarni anglatib, hozirgi zamonda qo‘llaniladigan sukuk atamasi arab tilida yuqoridagi ikkinchi ma’nodan kelib chiqqan. Sukuk so‘zining ikkinchi ma’nosи hukmdorlar tomonidan nafaqalar berish amaliyotida keng qo‘llanilingan. Islomning birinchi asr oxirlarida Ummaviylar xalifaligi davrida askarlarga to‘lov turi sifatida sukukdan keng foydalanilgan.<sup>2</sup> Bu nafaqalar sukuk shaklida xizmatdan so‘ng uni olishga huquqi bo‘lgan odamlarga o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun berilgan. Ammo, amaliyotda sukuk egalari sukukni qo‘lga kiritishdan oldin ma’lum bir moliyaviy va iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish uchun oldindan ushbu sukuklarni boshqa shaxslarga sotishardi. Bunga sabab esa sukuk odatda uzoqroq hududlardan yuborilgan bo‘lib, biror narsaga ehtiyoji mavjud bo‘lgan sukuk egalari uni kelishini kutib o‘tirmagan.<sup>3</sup> Shuni ta’kidlash kerakki, shukuk sotish amaliyotining haqiqiyligi hadisning turli talqinlari tufayli fiqhiy bahs mavzusidir Sahih Muslimda (10:3652), bu quyidagicha tarjima qilingan:

<sup>1</sup> M Bin Manzūr, *supra* note 1, 457.

<sup>2</sup> See A Hassan, *Sales and Contracts in Early Islamic Commerical Law* (The Other Press 2007) 119; A Khorshid, ‘Sukuk and Securitization’ in A Khorshid (ed), *Euromoney Encyclopedia of Islamic Finance* (Euromoney Institutional Investor PLC 2009) 281.

<sup>3</sup> M Bin Manzūr, *supra* note 1, 457.



# E CONF SERIES



**International Conference on Economics, Finance, Banking and Management**

**Hosted online from Paris, France**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

24<sup>th</sup> December, 2024

Abu Hurayra (roziyallohu anhu) Marvon ibn Hakamga: "Siz ribo (foiz) bilan bog‘liq savdo-sotiqni halol qilib qo‘ydingizmi?" – deb aytganlari rivoyat qilingan. Shunda Marvon: "Men bunday qilganim yo‘q," – dedi. Abu Hurayra (roziyallohu anhu) unga: "Siz hujjatlar yordamida savdo-sotiqni halol qilib qo‘ydingiz, holbuki, Allohning elchisi (sollallohu alayhi va sallam) oziq-ovqat mahsulotlari ustidan to‘liq egalik o‘rnatilmaguncha, ularda savdo qilishni taqiqlaganlar," – dedilar. Shunda Marvon odamlarga qarata murojaat qildi va bunday hujjat yordamida savdo qilishni taqiqladi. Sulaymon esa: "Men qo‘riqchilarni odamlarning qo‘lidan bunday hujjatlarni tortib olayotganini ko‘rdim," – dedi.

Birinchi ko‘rinish yuqoridagi hadis matniniga ko‘ra sukukni sotishni taqiqlaydi.<sup>4</sup> Bu fikrga ko‘ra, sukuk amaliyoti hali egalik qilmagan narsani sotishga teng. Ikkinchisi hadisning alternativ tarjimasiga ko‘ra, sukukni sotish amaliyoti hech qanday normalarga xi洛f emas. Ammo, ushbu fikr tarafdorlari sukukni sotish amaliyoti sukukni dastlabki olgan odam uchun joiz, biroq, sukukni dastlabki egasidan olgan odam uchun uni sotish nojoizdir. Yuqorida tasvirlanganiday huquqlarni himoya qiluvchi hujjat sifatida hozirgi zamondagi sukukka to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos kelavermaydi. Shunisi aniqki, yuqoridagi tasvirlangan shakldagi sukuk va bugungi kundagi zamonaviy sukuk ko‘rinishi jihatidan bir so‘z bo‘lishi mumkin, ammo ular o‘zining faoliyat tartibiga ko‘ra farqlanadi. Zamonaviy sukuk islomning ilk davridagi klassik sukukning davrlar osha rivojlanib, sayqallanib kelgan shaklidir. Klassik sukuklar o‘zida investitsiyaviy munosabatlarni mujassam etmaydi va islomiy tadbirkorlik shartnomalariga asoslangan shaklni aks ettirmaydi. Klassik sukuk asosan to‘lov usuli va sukukka egalik qiluvchilarning huquqlarini yozib olish uchun foydalanilgan. Bundan tashqari klassik sukukni sotishning belgilangan islomiy normalarga mos kelishi doimo olimlar tomonidan savol ostiga qo‘yilgan. Shu sababli ham sukukning klassik usulidan foydalanishga tayanish zamonaviy sukukning maqsadlariga muvofiq kelmaydi.

<sup>4</sup> Y Al-Nawawi, *Sahih Muslim Bisharb Al-Nawawi*, vol 10 (Dār Ihyā’ Al-Turāth Al-‘araby 1392) 171.



# E CONF SERIES



**International Conference on Economics, Finance, Banking and Management**

**Hosted online from Paris, France**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

24<sup>th</sup> December, 2024

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Sukuk: History and Development, Essia Ries Ahmed, Md. Aminul Islam, Fathyah Hashim.
2. A qualitative analysis on the determinants of legitimacy of sukuk. Essia Ries Ahmed, Md. Aminul Islam, Tariq Tawfeeq Yousif Alabdullah.
3. Sukuk Legitimacy A New Measurement Based on Content Analysis. Essia Ries Ahmed.
4. Sukuk Market: Innovations and Challenges. Muhammad Al-Bashir Al-Amine
5. M Bin Manzūr, supra note 1, 457.
6. See A Hassan, Sales and Contracts in Early Islamic Commerical Law (The Other Press 2007) 119; A Khorshid, ‘Sukuk and Securitization’ in A Khorshid (ed), Euromoney Encyclopedia of Islamic Finance (Euromoney Institutional Investor PLC 2009) 281.
7. M Bin Manzūr, supra note 1, 457.
8. Y Al-Nawawi, Ṣahīḥ Muslim Bisharḥ Al-Nawawi, vol 10 (Dār Ihyā’ Al-Turāth Al-‘araby 1392) 171.